



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 12 (14)  
2025**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**12**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2025**

**MUNDARIJA**

<b>Юлдашев Ш.Г.</b> Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
<b>Tursunov A.M.</b> Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
<b>Umurzakova Z.S.</b> Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
<b>Axunov M.A.</b> Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
<b>Исраилова Д.К.</b> “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
<b>Шокирова Г.М.</b> Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
<b>Vaxtohonova D.N.</b> Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
<b>Xasanova X.F.</b> Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
<b>Бегимова Д.К.</b> Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
<b>Mirzayev B.S.</b> CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
<b>Mirzarahimova A.A.</b> Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
<b>Азимов О.Т.</b> Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
<b>Халмирзаев А.А.</b> Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
<b>Шоабдурахимова М.М.</b> Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
<b>Xolmuratov O.T.</b> Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
<b>Yarashev M.O., Nabieva S.A.</b> Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
<b>Кабилова К.</b> Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
<b>Махмудова С.</b> Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
<b>Захидова Ш.Ш.</b> Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
<b>Saidaxmedov N.X.</b> Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
<b>Усманова С.С.</b> Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
<b>Madrahimov U.A.</b> Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
<b>Джалилов Д.А.</b> Капиталнинг ялли ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
<b>Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
<b>Mahmudov Sh.N.</b> Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
<b>Ustadjalilov D.R.</b> O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
<b>Гайбуллаев Ф.</b> Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
<b>Abdurazakova F.D., Normurodov X.E.</b> Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
<b>Muxtarov M.M.</b> Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
<b>Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H.</b> Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

<b>Rahmatova N.A., Mustafayeva H.</b> O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	<b>147</b>
<b>Ахмедов Х.</b> Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	<b>154</b>
<b>Boboyev A.Ch.</b> Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	<b>159</b>
<b>Исраилов З.А.</b> Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	<b>165</b>
<b>Ikromov A.Sh.</b> Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>169</b>
<b>Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш.</b> Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	<b>175</b>
<b>Elmurodov Sh.Sh.</b> A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	<b>183</b>
<b>Axmadjonov S.S.</b> Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	<b>188</b>
<b>Sabirova Z.U.</b> Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	<b>192</b>
<b>Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R.</b> Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	<b>197</b>
<b>Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х.</b> Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	<b>203</b>
<b>Zoxidov T.M.</b> Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	<b>211</b>
<b>Nabiyeva N.M.</b> Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	<b>216</b>
<b>Sharofiddinov Sh.U.</b> Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	<b>221</b>
<b>Nurmatov Z.Sh.</b> O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	<b>225</b>
<b>Содиқов А.М., Зокиров С.С.</b> Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	<b>230</b>
<b>Narmanov U., Ikromova S.</b> Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	<b>238</b>
<b>Qutbiddinov A.B.</b> Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	<b>241</b>
<b>Qayumova Sh.S.</b> Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	<b>246</b>
<b>Turebekov A.A.</b> Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	<b>252</b>
<b>Kurbanova M.N., Azizov A.A.</b> Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri.....	<b>255</b>
<b>Samadova G.S.</b> O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta’siri.....	<b>259</b>
<b>Абдуллаева Р.</b> Инклюзив тadbirkorlikning моҳияти ва хориж тажрибаси.....	<b>264</b>
<b>To‘uchiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta’minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	<b>268</b>
<b>Amnah Saeed J Alhindi</b> The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	<b>272</b>
<b>Fayziyev O.R.</b> O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	<b>276</b>
<b>Алимов Р.А., Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	<b>280</b>
<b>Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X.</b> Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri.....	<b>284</b>
<b>Xaydarov X.U., Raxmonov D.R.</b> 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta’siri.....	<b>288</b>
<b>Солижонов М.А.</b> Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	<b>292</b>
<b>Rejarov X.X.</b> Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	<b>297</b>

механического использования технологий к осмысленному диалогу, который открывает путь к устойчивому развитию и инновациям на глобальном уровне.

**Список использованной литературы:**

1. Cohen, W. M., & Levinthal, D. A. (1990). Absorptive Capacity: A New Perspective on Learning and Innovation. *Administrative Science Quarterly*, 35(1), 128–152. DOI: отсутствует (классическая публикация), доступ через JSTOR: <https://www.jstor.org/stable/2393553>
2. Zahra, S. A., & George, G. (2002). Absorptive Capacity: A Review, Reconceptualization, and Extension. *Academy of Management Review*, 27(2), 185–203. DOI: <https://doi.org/10.5465/AMR.2002.6587995>
3. Griffith, R., Redding, S., & Van Reenen, J. (2004). Mapping the Two Faces of R&D: Productivity Growth in a Panel of OECD Industries. *The Review of Economics and Statistics*, 86(4), 883–895. DOI: <https://doi.org/10.1162/0034653043125194>
4. Crespi, G., & Zuniga, P. (2012). Innovation and Productivity: Evidence from Latin American and Caribbean Firms. *World Development*, 40(2), 273–290. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2011.07.010>
5. Abou-Foul, M., Ruiz-Alba, J. L., & López-Tenorio, P. J. (2023). The Impact of Artificial Intelligence Capabilities on Servitization: The Moderating Role of Absorptive Capacity — A Dynamic Capabilities Perspective. *Journal of Business Research*, 157, Article 113609. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2022.113609>
6. Kastelli, I., Dimas, P., Stamopoulos, D., & Tsakanikas, A. (2022). Linking Digital Capacity to Innovation Performance: The Mediating Role of Absorptive Capacity. *Journal of the Knowledge Economy*, 13, 13132-01092. DOI: <https://doi.org/10.1007/s13132-022-01092-w>

**UDK: 338.656**

**LOGISTIKA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСУРСОВ ЛОГИСТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ НА РЕГИОНАЛЬНОЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ**

**IMPACT OF RESOURCE UTILIZATION OF LOGISTICS SERVICE COMPANIES ON REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT**

**Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li**

Qarshi davlat universiteti, Turizm va marketing kafedrası mustaqil izlanuvchisi  
Ilmiy rahbar: i.f.d (DSc) **Sh.X.Muxitdnov**

**Annotatsiya**

Maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mintaqaviy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda logistik xizmat korxonalarini resurslaridan oqilona foydalanish tahlil qilingan. Tadqiqotda moddiy, moliyaviy, mehnat, axborot va tashkiliy resurslar hamda “input–process–output” modeli asosidagi samaradorlik ko‘rsatkichlari baholangan. Transport, ombor va IT-infratuzilmalar, raqamli boshqaruv platformalari (ERP, WMS, GPS) va investitsion qaytish ko‘rsatkichlari (ROI, ROE) o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlari:** logistika tizimi, resurslar samaradorligi, raqamli boshqaruv, transport-logistika markazlari, ta’minot zanjiri, investitsion qaytish, mintaqaviy iqtisodiyot, logistika xizmatlari, innovatsion texnologiyalar.

В статье проанализировано рациональное использование ресурсов логистических компаний для повышения конкурентоспособности региональной экономики в условиях глобализации и цифровой трансформации. Исследованы материальные, финансовые, трудовые, информационные и организационные ресурсы, а также показатели эффективности по модели «input–process–output». Рассмотрено использование транспортной, складской и IT-инфраструктуры, цифровых управленческих платформ (ERP, WMS, GPS) и показатели инвестиционной отдачи (ROI, ROE).

**Ключевые слова:** логистическая система, эффективность использования ресурсов, цифровое управление, транспортно-логистические центры, цепочка поставок, инвестиционная отдача, региональная экономика, логистические услуги, инновационные технологии.

The article analyzes the rational use of logistics company resources to enhance regional economic competitiveness under globalization and digital transformation. Material, financial, labor, information, and organizational resources, as well as efficiency indicators based on the “input–process–output” model, were assessed. The study examined the use of transport, warehouse, and IT infrastructure, digital management platforms (ERP, WMS, GPS), and investment return indicators (ROI, ROE). Results show that efficient resource utilization improves cost and time savings, ensures supply chain continuity, and enhances the performance of transport and logistics centers.

**Keywords:** logistics system, resource efficiency, digital management, transport and logistics centers, supply chain, investment return, regional economy, logistics services, innovative technologies.

Hozirgi globallashuv, raqamli transformatsiya va transport-kommunikatsiya tizimining modernizatsiyasi sharoitida mintaqaviy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda logistik xizmat korxonalarini resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Mintaqalarda ishlab chiqarish, savdo, eksport-import va turizm tarmoqlari o‘sib borayotgan sharoitda logistika korxonalarini iqtisodiy tizimning “harakat mexanizmi” sifatida ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi strategik bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblanadi.

Logistik xizmat ko‘rsatish korxonalarini:

- ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi;
- mahsulot aylanmasini tezlashtiradi;
- transport va ombor xarajatlarini optimallashtiradi;
- raqamli boshqaruv orqali axborot oqimini tezlashtiradi.

Ularning resurslari moddiy (transport, ombor, texnika), moliyaviy (kapital, investitsiya), mehnat (malakali ishchi kuchi), axborot (raqamli tizimlar, dasturiy platformalar) va tashkiliy (boshqaruv strukturalari) komponentlardan iborat. Resurslardan oqilona foydalanish “input–process–output” mexanizmi orqali samaradorlikni oshiradi, xarajat va vaqtni tejaydi, ishlab chiqarish zanjirini uzluksiz qiladi va transport-logistika markazlari samaradorligini kuchaytiradi.

Tahlil transport, ombor va IT-resurslardan foydalanish, raqamli platformalar (ERP, WMS, GPS) samaradorligi, resurs aylanishi va investitsion qaytish (ROI, ROE, TFP) ko‘rsatkichlariga qaratilgan bo‘lib, mintaqaviy iqtisodiy barqarorlik va integratsiyani ta’minlashga xizmat qiladi.

Logistik xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan oqilona foydalanish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, tadqiqotlar asosan ta’minot zanjiri boshqaruvi, resurslarni optimallashtirish va raqamli logistik platformalarning samaradorlikka ta’siri kabi yo‘nalishlarga qaratilgan. M.Porter, J.Stok va D.Lambert kabi tadqiqotchilar logistika tizimini iqtisodiy raqobatbardoshlikning asosiy omili sifatida baholagan bo‘lib, resurslarni koordinatsiya qilish va integratsiya darajasi umumiy samaradorlikni belgilashini ta’kidlaydi. Yevropa va Osiyo mamlakatlari bo‘yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlarda (Christopher, 2016; Bowersox, 2020) raqamli texnologiyalar - ERP, WMS, TMS, GPS monitoring - logistika jarayonlarida vaqt va xarajatlarni sezilarli qisqartirishi ilmiy asoslab berilgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida resurslardan foydalanishning yangi yondashuvlari IoT, Big Data, bulutli servislar va sun’iy intellekt asosida logistik qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirishi ko‘plab ilmiy manbalarda tasdiqlangan. Shuningdek, FAO, OECD va UNCTAD kabi xalqaro tashkilotlar hisobotlarida mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda logistika infratuzilmasining yetishmasligi, resurs sig‘imi pastligi va integratsiya darajasining sustligi iqtisodiy o‘shiga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlarida (A.Vakhabov, T.Qoriev, M.Alimardonov va boshqalar) mintaqaviy logistik infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport-ombor tizimlarini samaralashtirish va resurslardan tejamkor foydalanish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Hukumat tomonidan qabul qilingan so‘nggi yillarning transport-logistika strategiyalari, raqamli iqtisodiyotga o‘tish dasturlari va “yagona logistika markazlari”ni yaratish tashabbuslari ushbu ilmiy yondashuvlarni amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar logistik resurslarni boshqarishning samarali mexanizmlari transport, ombor, mehnat va IT resurslarining integratsiyasi hamda raqamli platformalar orqali real vaqt rejimida boshqaruvni ta’minlashga asoslanishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot logistik xizmat ko‘rsatish korxonalarining resurslardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan. Unda kompleks yondashuv, tizimli tahlil va empirik metodlar qo‘llanilgan. Logistika tizimi “input–process–output” konsepsiyasi asosida modellashtirilib, moddiy, moliyaviy, mehnat, axborot va tashkiliy resurslarning o‘zaro bog‘liqligi aniqlangan. Samaradorlikni baholash uchun transport yuklama koeffitsienti, ombor sig‘imidan foydalanish darajasi, raqamli boshqaruv tizimlari (ERP, WMS, TMS, GPS) va investitsion qaytish ko‘rsatkichlari (ROI, ROE, TFP) ishlatilgan.

Logistik resurslardan foydalanish darajasi mintaqaning iqtisodiy salohiyati, investitsiya jozibadorligi va infratuzilma rivojlanishini belgilovchi muhim strategik ko‘rsatkich hisoblanadi. Tahlilning asosiy maqsadi mintaqaviy logistik xizmat ko‘rsatish korxonalarining resurs salohiyatini baholash, ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash va optimallashtirish yo‘nalishlarini belgilashdan iborat. Tadqiqot jarayonida resurslardan foydalanish koeffitsientlari, ularning o‘zaro bog‘liqligi, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi hamda boshqaruvning iqtisodiy natijalarga ta’siri o‘rganildi.

Tahlil Qashqadaryo viloyati misolida amalga oshirilib, transport, ombor, moliyaviy, axborot-texnologik va inson resurslari kesimida baholandi. Natijalar logistika tizimidagi resurslarning o‘zaro muvofiqligi mintaqqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

**1-jadval**

**Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda logistik xizmat ko‘rsatish korxonalari resurslaridan foydalanishni tahlil qilish**

<b>Resurs turi</b>	<b>Tavsif</b>	<b>Foydalanish samaradorligi (0–1)</b>
Transport resurslari	Avtotransport, temir yo‘l va multimodal tashish vositalari	0.85
Ombor infratuzilmasi	Saqlash, sovutkich tizimlari va logistika terminallari	0.73
Moliyaviy resurslar	Kapital, investitsiyalar, aylanma mablag‘lar	0.68
Axborot-texnologik resurslar	ERP, WMS, GPS va raqamli boshqaruv platformalari	0.76
Inson resurslari	Malakali kadrlar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar	0.81

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, eng yuqori samaradorlik transport (0,85) va inson resurslari (0,81) hissasiga to‘g‘ri keladi, bu mintaqada logistika tarmoqlarining nisbatan rivojlanganini ko‘rsatadi. Axborot-texnologik resurslar (0,76) raqamli boshqaruv tizimlarining faol joriy etilayotganini bildiradi. Shu bilan birga, ombor infratuzilmasi (0,73) va moliyaviy resurslar (0,68) nisbatan past bo‘lib, ushbu yo‘nalishlarda investitsiyalarni kengaytirish va modernizatsiya zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari logistik xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirishi, raqamli transformatsiyani jadallashtirishi hamda mintaqa iqtisodiyotining barqaror o‘shirishiga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, resurslardan foydalanish samaradorligidagi farqlar mintaqada logistika infratuzilmasining hududlar kesimida notekis rivojlanganini ko‘rsatadi. Transport va inson resurslari bo‘yicha yuqori natijalar mavjud imkoniyatlardan nisbatan to‘liq foydalanilayotganini bildirsa, moliyaviy va ombor infratuzilmasidagi past ko‘rsatkichlar logistika zanjirida cheklovchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat logistika xizmatlari qiymat zanjirining ayrim bo‘g‘inlarida samaradorlik yo‘qotilishiga olib kelib, umumiy iqtisodiy natijaga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, resurslardan foydalanishni hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda muvofiqlashtirish va investitsion ustuvorliklarni aniqlash mintaqaviy logistika siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim. Bundan tashqari, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, logistik xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligi nafaqat infratuzilma darajasi, balki boshqaruv sifati va institutsional muhit bilan ham bevosita bog‘liqdir. Xususan, raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish darajasi yuqori bo‘lgan korxonalarda resurs aylanishi tezlashib, xizmatlar tannarxi pasaymoqda hamda qaror qabul qilish jarayoni yanada shaffoflashmoqda. Aksincha, boshqaruv mexanizmlari yetarli darajada moslashmagan korxonalarda mavjud resurslar to‘liq safarbar etilmayapti. Shu sababli, mintaqaviy logistika tizimini rivojlantirishda institutsional islohotlar, boshqaruv standartlarini joriy etish va raqamli kompetensiyalarni kuchaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Umuman olganda, logistik xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurslaridan oqilona foydalanish mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, transport-logistika zanjirlarini optimallashtirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va bandlikni oshirishga xizmat qiladi. Resurslardan foydalanish samaradorligini muntazam monitoring qilish mintaqaviy logistika siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini shakllantirish imkonini beradi.

Resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish raqamli texnologiyalarni joriy etish, logistik jarayonlarni optimallashtirish va ilmiy asoslangan boshqaruv usullarini qo‘llash orqali ta‘minlanadi. Bunda mintaqaviy logistika korxonalarining o‘ziga xos xususiyatlari va mahalliy iqtisodiy sharoitlar inobatga olinishi zarur. Samaradorlikning ortishi resurslardan minimal xarajatlar bilan maksimal natijaga erishish, xizmat hajmi va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, logistik xizmat ko‘rsatish korxonalarining samarali boshqaruvi mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirish, raqobatbardoshligini mustahkamlash va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashning muhim omili hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Christopher, M. *Logistics and Supply Chain Management*. Pearson Education, 2016.
2. Bowersox, D., Closs, D., & Cooper, M. *Supply Chain Logistics Management*. McGraw-Hill, 2020.
3. Porter, M. E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. Free Press, 1998.
4. Stock, J., & Lambert, D. *Strategic Logistics Management*. McGraw-Hill, 2019.
5. UNCTAD. *Review of Maritime Transport*. Geneva, 2023.
6. OECD. *Logistics Performance and Regional Competitiveness*. Paris, 2022.
7. FAO. *Agri-Food Supply Chain and Logistics Efficiency Report*. Rome, 2021.
8. World Bank. *Connecting to Compete: The Global Logistics Performance Index*. Washington D.C., 2023.
9. Vakhobov, A.V., Qoriev, T.Q., & Alimardonov, M. *Logistika tizimlari va ta‘minot zanjiri boshqaruvi*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Transport-logistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va farmonlari (2020–2024 yillar).
11. Xamidov, R., & Raximov, B. *Mintaqaviy iqtisodiyot va logistika tizimlari*. Toshkent, 2021.
12. Lambert, D., & Enz, M. *Issues in Supply Chain Management*. Journal of Supply Chain Management, 2017.